

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL'TETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN

***Mavzu: Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani
taraqqiyotidagi o'rni***

KURS ISHI

2013-2014 o'quv yili

Bajaruvchi 3-kurs 05-guruh talabasi Sattarov Eldor
Ilmiy rabar: Qo'shbaqov H.A.

Kurs ishi O'zbekiston tarixi kafedrası komissiyasida himoya qilindi va
_____ga baholandi. (Bayonnoma №_2014)

Komissiya raisi: _____

Komissiya a'zolari:

Samarqand - 2014

Reja:

I.Kirish. Ma'mun akademiyasining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.

II.Asosiy qism:

1.Ma'mun akademiyasining tashkil qilinishi.

2.Akademiyada faoliyat yuritgan olimlar va ularning jahon ilm- fani taraqqiyotidagi o'rni.

3. Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil qilish to'g'risida Farmon.

4. Xorazm Ma'mun Akademiyasining hozirgi davrdagi faoliyati.

III.Xulosa:

Kirish

Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Ko'hna Xorazmning boy o'tmish tarixi ming yillarga borib taqaladi. Hali yaqindagina Sharq gavxari sanalgan Xivaning 2500 yilligi qomusiy kitob "Avesto" ning 2700 yilligi milliy qahramon va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillik sanalarining jahon miqyosida keng nishonlanganligi ham ana shundan guvohlik beradi. Kuishilik sivilizatsiyasining ko'hna beshiklaridan bo'lgan Xorazmda azal- azaldan ilm- ma'rifat yuqori darajada taraqqiy etganligi ma'lum.

Shu tabarruk zamin, prezidentimiz I. Karimov ta'biri bilan aytganda , dunyoga Muso al- Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamahshariy va Najmiddin Kubro, Paxlavon Maxmud va Ogoxiy singari buyuk zotlarni bergan. Bundan ming yil avval shu muqaddas zaminda "Dar ul- hikmat va maorif" yoki "Majlisi ulamo" nomi bilan mashxur bo'lgan sharqning qadimiy ilmiy markazining vujudga kelganligi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida katta voqea bo'ldi. "Dar ul- hikmat va maorif"ning ilmiy faoliyati o'tgan asrda Evropalik va Rossiyalik sharqshunos olimlardan Zaxau, S. P. Tolstov, I. Y. Qrachqovski, P. G. Bulgakov, o'zbek olimlaridan Yaxyo. G'ulomov, Ibroxim Mo'minov, Muzaffar Xayrullayev va Ashraf Ahmedov va boshqalar tomonidan chuqur o'rganildi. Ular shu ilmiy markazning xuddi Bog'dodda IX asrdagi " Bayt ul- hikma" (" Hikmatlar uyi") kabi sharqning o'z davridagi yirik ilm ma'rifat dargohi- fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar. XI asrda Xorazmshoxlar poytaxti Gurganjda vujudga kelgan bu ilmiy markaz endilikda fanda Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan mashxur. Ushbu yilda ana shu akademiyaning tashkil etilganligiga ming yil to'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning sa'y-harakati bilan Ma'mun akademiyasining milliy va umubashariy taraqqiyotdagi xizmatlarini

hisobga olib ,uning ming yillik to'yini munosib nishonlashga qaror qilindi.YUNESKO tashkilotining Bosh ikonferensiyasi 2003 yil sentyabrda bo'lib o'tgan 32-sessiyasida Xorazm Ma'mun akademiyasning ming yillik yubileyini dunyo miqiyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi.

“Dar ul-hikma”yoki “Majlisi ulamo”nomi bilan atalgan bu ilm maskani bir guruh olim ,adib ,shoirlarning tasodifiy yig'ini emas edi. Ma'mun akademiyasi ,avvalo, ko'hna Xorazmning uzoq o'tmishdagi ilm-marifat ildizlari bilan bevosita aloqador , shuningdek u ilk o'rta asr-uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi.

Malumki, IX-XIII asr boshlari Sharq xalqlari tarixida Sharq uyg'onish davri yoki “Islom Renessansi” nomi bilan mashxurdir. Bu davr ilgari xalifalik tarkibiga kirgan Yaqin Sharq, O'rta Osiyo, Xorazm, Xuroson, Eron, Shimoliy Hindiston va ularga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilm-ma'rifiy sohalarda yuksak taraqqiyotga erishilganligi bilan ajrali turadi. Avvalo, bu yuksalishning moddiy va ma'naviy asoslari o'sha davrda feodal jamiyati ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, uning moddiy zmini xalifalik davridayoq yaratilgan edi. IX asrga kelib, poytaxt Bog'dodda tabiiy va gumonitar fanlar bilan shug'ullangan sharqning bir guguh mashxur olimlari, mutafakkirlari va tarjimonlari faoliyat ko'rsatib, ular o'zlarini bebaho asarlari bilan dunyo taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shdilar. Uyg'onish davridagi iqtisodiy va madaniy ko'tarilishda O'rta Osiyo, Xuroson Eroning arab xalifaligidan ajralib chiqib, bu xududlarda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, o'zaro nizolarni vaqtincha to'xtatishi hamda marifatparvar xukumdorlarning mamlakat iqtisodi va madaniy taraqqiyoting aloxida etibor bilan qaraganliklari ham katta kasb etdi .O'sha davrda Sharqning bir qator shaharlari ,jumladan ,Bag'dod ,Damashq , Nishapur ,Ray , Jurjon, Marv,Buxoro, ,Samarqand,Kot,Gurganj,Xiva,va boshqar nafaqat savdo, hunarmandchilik, balki ilm –marifat markazi sifatida ham mashxur bo'di. IX asrda Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan “Baytul-ul hi;ma” Sharqning to'g'ich akademiyalaridan sanalib ,mazkur ilmiy dargohda ijod qilgan olimlarning aksari, jumladan, Muhammad al-Xorazmiy,Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-

Marvaziy, Abbos al-Javhariy va boshqalar Movarounnahr va Xorazm zaminidan yetishib chiqqan taniqli allomar va mutaffakirlar edi.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) “Bayt ul-hikma”ning yetakchi olimi , ilmiy rahbari, fanda yangi yo’nalish va maktab yaratgan allomalardan edi .U astronomiya, matematika, gografiya, tarix va boshqa fanlar sohasida o’nlab asarlar qoldirgan. Uning “Al-jabr val-muqobala”kitobi jahonda birinchi bo’lib algebra faniga asos bo’lgan asarlardandir. Olim matematika fanida o’nlik pozitsion hisoblash sistemasini yaratdi .Shu asosda u qo’shish, ayirish, ko’paytirish va bo’lish amalyotining qulay va oson yo’lini kashf etib, Sharq va Yevropani ilg’or hisoblash tizimiga o’rgatdi.

Fanda har qanday muntazam, izchil hisoblash jarayonini anglatadigan matematik tushuncha-algoritim tushunchasi ham al-Xorazmiy nomi bilan bevosita bog’liq, chunki olimning lotinlashgan nomi G’arbda “Algorizm”, “Algoritmus”bo’lib o’zgarib ketgan.

Al-Xorazmiyning 40 yildan ortiq umri Bag’doda, “Bayt ul-hikma”da o’tdi.U Marvda ,so’ngra Bag’dod va Damashq shaharlaridagi rasadxonalarda ancha yillar kuzatishlar olib borib, o’zining astronomiyaga doir mashhur asari “Ziji Xorazmiy”ni yaratdi.Ushbu asari bilan u fan olamida birinchi astronomik jadvalga asos slogan olimdi. Al-Xorazmiyning “Ziji”1126 yildayoq lotin tiliga tarjima qilingan. Olimning matematika Al-Xorazmiyning matematika, astronomiya, trigonometriya va boshqa asarlaridan Quyosh, Oy va sayyoralar harakatini kuzatishda, qurulishda va shaharsozlikda,tashqi savdo aloqalarida keng foydalanib kelinggan.

Amerikalik olim D.Sarton o’zining fan tarixiga doir asarida IX asrning birinchi yarmini “Xorazmiy davri”deb ataydi.

Olim 850 yili, 67 yoshida Bag’dodda vafot etdi.Al-Beruniy ,Abu Nasr Iroq, Ibn Sino, al-Chag’miniylar al-Xorazmiyni o’zlariga ustoz deb bilganlar.

Ahmad al-Farg’oniy(787-861)ning astronomiya ,matematika, mexanika ilmlari sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U Sharqda birinchi bo’lib astronomic asboblarni ixtirochisi sifatida tanildi. O’zi ixtiro qilgan astronomik asboblarni

yordamida bir mingdan ortiq yulduzning joylashuvi, harakati haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirdi.

U “Bayt ul-hikma” da matematika, astronomiya, astrofizika, giodeziya, geografiya, gidroloiya va muhandislik sohasida sarmahsul ijod sohibi bo'lgan. Olimning bizgacha “Samoviy harakatlar haqida kitob va ilmu nujum to'plami”, “Ilmu nujum asoslari haqida kitob”, “Al-majistiya”, “Astrologiia haqida kitob”, “Astronomiya ilmi” va boshqa asarlari yetib kelgan. Uning asarlari XII asrdayoq lotin va yahudiy tillariga o'girilgan. Olimning astronomiyaga oid asarlarida samoviy jismlar, ayniqsa, 1022 ta yulduzning xarakati, ularning turkumlari haqida qimmatli malumotlar beriladi. Ispaniyalik ashhur sayyoh Xristafor Kolumb Amerikani kashf etishda Al-Farg'oniyni astronomik jadvallari va xaritasidan foydalangan. Al-Farg'oniyni nafaqat astronom, shuningdek, amalyotchi muhandis sifatida ham mashhur bo'lgan. Uning 861 yili Misrda Nil daryosiga o'rnatgan “Miqyos an-Nil” inshootidan suv rejimini tartibga solishda to'rtinchi asrning 60-yillarigacha foydalanib kelingan. 1998-yili YUNESKO qarori bilan olimning 1200 yillik yubileyi keng nishonlandi. Al-Beruniy, Al-Chag'iniy va Mirzo Ulug'beklar o'z tadqiqotlarida al-Farg'oniyni asarlaridan keng foydalanganlar.

Ma'mun akademiyasining tashkil qilinishi. Bag'dodda tashkil qilingan akademiya to'g'risida yuqorida aytib o'tgan edik. Nemis fan tarixchisi X. Zuter o'zining matematika va astronomiya tarixiga bag'ishlangan asarida IX-X asrlarda Bag'doddagi “Bayt ul-Hikma”da faoliyat olib borgan 500 dan ortiq olimlarning ro'yxatini keltiradi. Chex olimi Yu. Rushkaning tadqiqoticha, bu olimlarning aksariyati Xorazm, Farg'ona, Shosh va xurosonlik bo'lgan. Bu “aksariyat”ning ham deyarli uchdan ikki kismini xorazmliklar tashkil qilgan. Shuni diqqatga sazovorki, mashhur arab geografi Ibn Xavkal o'zining “Yo'llar va mamlakatlar” nomli X asr birinchi choragida yozilgan asarida Xorazm mintaqasiga ta'rif berayotib, Xorazm aholisining ilmga chanqoqligi va zukkoligi haqida ham aytib o'tadi va “Hozir Bag'dodda xorazmlik shogirdi bo'lmagan birorta qozi, faqih yoki ilm-ma'rifatga aloqador shaxs yo'q”, - deb yozadi.

Shubhasiz, al-Ma'mun “Bayt ul-Hikma”sining shuhrati tez orada xalifalikning barcha yerlariga yetadi. IX asr oxiri X asr boshlarida xalifalikdan mustaqillikka erishgan hududlarning hukmdorlari yo an'ana sifatida, yoki al-Ma'munga taqlid qilib, o'z saroylarida ma'rifat ahlini to'plashga urinadilar. Lekin bu urinishlarning ko'pi muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqadi. Faqat ba'zi hollarda feodal saroylarida shoirlar va muarrixlar to'planib, ular asosan maddohlik bilan mashg'ul bo'lganlar.

Bu borada Xorazmning hukmronlari – Xorazmshohlar alohida o'rin tutadi. Xorazmda, uning qadimiy poytaxti Katda (hozirgi Beruniy) 305 yildan to 995 yilgacha afrigiylar hukm suradi. Lekin 712 yildan boshlab Xorazmning ikkinchi qadimgi shahri Gurganch (Ko'hna Urganch) arablar tomonidan qo'yilgan amirning qarorgohi vazifasini bajaradi. Bu amirlar alohida Iroqiylar sulolasini tashkil qildi. Ikkala sulola ham Xorazmshohlarning qadimgi odati bo'yicha o'z saroylarida maslahatgo'y sifatida islomgacha zardushtiylik koxinlarini, islom davrida esa obro'li olimlarni saqlab turardilar.

995 yili Gurganch amiri Ma'mun I ibn Muhammad ibn Iroq Afrigiylar sulolasiga barham beradi va poytaxtni Gurganchga ko'chirib, o'zini Xorazmshoh deb e'lon qiladi. Aftidan, bu sulola almashinishi Xorazmdagi siyosiy barqarorlikka putur yetkazgan ko'rinadi, chunki ba'zi olimlar, jumladan Iroqiylarga xayrixoh bo'lgan Beruniy ham Xorazmni tark etishga majbur bo'ladilar. 998 yili Ma'mun I vafot etib, Ali ibn Ma'mun taxtga o'tirganidan keyin Xorazmdagi siyosiy ahvol barqarorlashadi. To'la ishonish mumkinki, uning otasiyoq Gurganchga Xorazmning barcha ilmiy salohiyatini mujassamlashtirishga uringan. Lekin uning vafoti bunga imkon bermadi. Bu ishni uning o'g'li Ali ibn Ma'mun sharaf bilan bajardi.

Ali ibn Ma'mun ana shunday og'ir siyosiy muhitda dono va zukko maslahatchilarga muxtoj edi. Uning baxtiga tog'asi Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olim edi. U tirikligidayoq “o'z davrining Ptolemeyi” degan laqabni olgandi. Undan tashqari Abu Nasr, Beruniyni o'z xonadonida tarbiyalab, yetishtirgan. Ana shu ikki siymo tufayli Iroqiylar saroyida ilm ahli

uchun ideal sharoit yaratiladi. Bu ikki shaxs yaqin va o`rta sharqdagi ko`plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Buning ustiga X asr oxiriga kelib Somoniylar sulolasiga barham beriladi. Ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan 1004 yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda “Dorul hikma va maorif” nomini olgan ilmiy muassasa to`la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag`doddagi “Bayt ul-Hikma”dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko`ra, bu muassasada suryon va yunon tillaridan ba'zi tarjimalar ham bajarilgan.

Ali ibn Ma'mun vafotidan keyin (1009) uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun xorazmshohlar taxtini egallaydi. U Beruniyni saroyga yaqinlashtiradi va o`ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi. Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun yanada kattaroq imkoniyatlar ochiladi.

XVIII asrda frantsuz entsiklopedistlari xalifa al-Ma'mun haqidagi maqolalarida uning faoliyatini va Bag`doddagi “Bayt ul-Hikma”ning faoliyatini har tomonlama sinchkovlik bilan tahlil qilib, uning faoliyatini Afinadagi Platon Akademiyasiga juda o`xshashligini e'tirof etganlar va “Bayt ul-Hikma”ni “Al-Ma'mun akademiyasi” deb ataganlar.

XX asrda Abu Rayhon Beruniy ijodini o`rganish munosabati bilan Abul Abbos Ma'mun II atrofidagi ilmiy muassasa ham har tomonlama o`rganildi va bu muassasa ko`p tarafdin Bag`doddagi “Bayt ul-Hikma”ga o`xshashligi va u ham o`z davrining akademiyasi ekanligi isbotlandi va unga “Ma'mun akademiyasi” nomi berildi. Ko`pchilik olimlarning fikriga ko`ra, uning faoliyat ko`rsata boshlagan davri, ya'ni olimlar to`la yig`ilib, ilmiy izlanishlar olib borilgan davri 1004 yilga to`g`ri keladi.

Ko`hna Urganchdagi “Majlisi ulamo” shunchaki tashkil qilingan ilm dargohi bo`libgina qolmasdan, balki barcha ilmlar bilan shug`ullanuvchi akademiyalardan biri hisoblanadi. Ma'mun Akademiyasi 1004 yillarda tashkil qilingan. Bunga asos sifatida Abu Rayhon Beruniyni, Abu Ali ibn Sinoni bu dargohga kelgan yillardan hisoblab chiqarsa bo`ladi.

Ma'mun Akademiyasida ilmlarning turli sohalari bo'yicha shug'ullanishgan, jumladan, riyoziyot, handasa, ilmu-nujum, metereologiya, tibbiyot, geodeziya, geologiya, dehqonchili va h.k.lar.

Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat rivojida X asr oxiri XI asr boshida faoliyat ko'rsatgan Xorazmdagi Akademiya muhim rol o'ynadi. Barcha darbadar yurgan olimlarni bir joyga to'plab, ularni ilm bilan shug'ullanishga chorladi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil qilish to'g'risida Farmon. VIII asr oxiri IX asr boshlarida xalifalikning markazi Bag'dodda ilm-fan rivojlandi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'limidan so'ng (813 yil), uning o'g'li al-Ma'mun xalifa etib tayinlandi. U xalifa sifatida Bag'dodga ko'chgach (819 yil), u yerda ilmiy Markaz tashkil etib, unda barcha musulmon o'lkalardan olimlarni to'pladi. Bu ilmiy Markaz tarixda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") nomi bilan mashhurdir.

Bu yerda asosan riyoziyot, tibbiyot, ilmi-nujum, jo'g'rofiya, astrologiya, handasa va shunga o'xshash boshqa fanlar o'rgatilgan.

Xorazmshoh Ma'munning o'g'li Ali ibn Ma'mun taklifi bilan 1004 yilda Gurganchda (Qo'hna Urganch) "Dorul hikma va maorif" nomli ilmiy muassasa shakllanadi. Bu yerga ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan har tarafdin olimlar kela boshlaganlar. Bu yerda ilmning barcha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yunon tillaridan tarjimalar ham qilingan.

XVIII asr frantsuz entsiklopedistlari al-Ma'mun faoliyatini va Bag'doddagi "Bayt ul-hikma"ning faoliyatini o'rganib chiqib, uni Afinadagi Platon Akademiyasiga juda o'xshatganlar va "Bayt ul-hikma"ni "al-Ma'mun Akademiyasi" deb ataganlar. Gurganchdagi "Dorul-hikma" esa "Ikkinchi Akademiya" bo'lib qoldi. Ma'mun Akademiyasining faoliyati 1017 yilda Mahmud G'aznaviy bosqini tufayli tugatiladi. Mustaqilligimiz sharofati tufayli Prezidentimizning tashabbusi bilan bu Akademiya qayta tiklandi. Prezidentimizning Xiva shahrining 2500 yillik tantanalarida so'zlagan nutqlarida Xorazm Ma'mun Akademiyasini qayta tiklash haqidagi taklifi va 1997 yil 11

noyabrda Farmoni bilan Xiva shahrida Xorazm Ma'mun Akademiyasi qaytadan tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risidagi farmoni

O'zbekistonning ilmiy saloxiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda is'tedodli va fidoiy olimlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an'analarni rivojlantirish, qadimda fan, ma'rifat va madaniyat olamining markazi hisoblangan, odamzot tarixidagi ilk akademiyalardan bo'lmish Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish maqsadida:

1. Xorazm Ma'mun Akademiyasi - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi Xiva shahrida tashkil etilsin.

Xorazm Ma'mun Akademiyasining asosiy ilmiy va tashkiliy vazifalari quyidagilar deb belgilansin:

- ilm-fan sohasidagi qadimgi ulug' milliy meros asoslarida yuqori intellektual muhitni yaratishdagi boy an'analarni tiklash va rivojlantirish, yosh is'tedodli olimlarni izlab topish, ularni Akademiya faoliyatiga jalb etish va ilmiy ijodlarining samaradorligini yuksaltirish;

- qadimgi milliy ilm-fan sohasidagi boy merosni har tomonlama o'rganish va tahlil qilish, tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya va biotexnologiya sohalarida fundamental izlanishlarni olib borish, zamonaviy ilmiy maktablar yaratish va fan yutuqlarini amaliyotga tabiq etish;

- mintaqada ilm-fan bilan bog'liq barcha ishlarni zamon talablari darajasida muvofiqlashtirish;

- oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

- Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirishda faol ishtirok etish, uzluksiz ta'lim tizimi va fan o'rtasidagi uzviy, o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, akademik litseylarda ilmiy pedagogik faoliyatni yuqori saviyada olib borish;

- xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish...

Xorazm Ma'mun Akademiyasining qayta tiklanishi va bugungi faoliyati

. Hozirda Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibida “Arxeologiya, tarix va falsafa”, “Biologiya muammolari” va “Til va adabiyot” bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Akademiyaga Urganch Davlat universiteti rektori, akademik Sadullaev Azimboy Sadullaevich rahbarlik qilmoqda. Unga ilmiy ishlar bo'yicha rais muovini, biologiya fanlari doktori, professor Safarov Karimjon Safarovich yordam bermoqda. Akademiyada ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda 31 ilmiy xodim, 5 fan doktori va 9 ta fan nomzodlari qatnashmoqdalar.

“Arxeologiya, tarix va falsafa” bo'limida uchta mavzu-“Xorazmda qadimgi va o'rta asrlar o'zbek davlatchiligi tarixi”, “O'zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o'rni”, “IX-XIII asrlarda Xorazmda ilmiy-madaniy ko'tarilish jarayonida Xorazm Ma'mun Akademiyasining tarixiy xizmati”, “Til va adabiyot” bo'limida esa “IX-XIII asrlarda Movarounnahr va Xorazmdagi adabiy va lisoniy muhit” mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

“Biologiya muammolari” bo'limida ham to'rtta dolzarb mavzu bo'yicha tadqiqot ishlari bajarildi. Bular quyidagilar: “Respublika shimoliy-g'arbiy mintaqasida qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlarini o'rganish”, “Mahalliy qishloq xo'jalik xom ashyosi asosida vitaminli omuxta yem olish texnologiyasini ishlab chiqish”, “Amudaryo quyi oqimida tuproq hosil bo'lishi jarayoni xususiyatlarini o'rganish”, “Xorazm vohasi termitlarining faunasi va ekologik-populyatsion tavsifi”. Ko'rinib turibdiki, har uchala bo'limdagi tadqiqot ishlari o'ta dolzarb va muhimdir. Quvonchlisi shundaki, jamoamiz murakkab jarayonlarni boshidan kechirishga to'g'ri kelgan bo'lsada, qunt, hafsala, sabr-bardosh bilan ishlab, izlanib, asosiy ilmiy-tadqiqot ishlarini yakunlashga erishdilar.

“Arxeologiya, tarix va falsafa” bo`limida 21 ta, “Til va adabiyot” bo`limida 16 ta, “Biologiya muammolari” bo`limida 15 ta ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar chop etildi. Shuningdek, turli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Olimlarimizning izlanishlari natijasida Xorazm viloyatida amarantning 4 turi va soyaning 2 navi o`stirildi. Amarant biomassasidan senaj va silos tayyorlash bo`yicha tavsiyalar tayyorlandi. Shuningdek, amarant urug`laridan kraxmal olish usuli ishlab chiqildi va patent olish uchun zarur hujjatlar tayyorlandi. Dukkakli don ekinlaridan 11, poliz ekinlaridan 5, moyli ekinlardan 4, yuksak suv o`simliklaridan 3, texnik ekinlardan 6 ta navlari viloyatimiz qishloq xo`jaligida qo`llanishga tavsiya qilindi.

Xalqaro hamkorlik aloqalari haqida ham aytib o`tish joiz: Rossiya Fanlar Akademiyasi va qozog`istonlik olimlar bilan “Yangi va noan'aviy o`simliklar hamda ulardan foydalanishning istiqbollari”, turkmanistonlik olimlar bilan Orolbo`yi hududidagi dehqonchilik muammolari bo`yicha hamkorlik davom etyapti. Biotexnologiya va tabiiy mahsulotlar Xalqaro Akademiyasi bilan hamkorlik qilishga kelishib olindi. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o`rganish” Frantsiya instituti bilan ilmiy aloqalar keng yo`lga qo`yilganligi esa ayniqsa quvonchlidir. “Til va adabiyot”, “Arxeologiya, tarix va falsafa” bo`limlarida olib borilgan va yakunlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ham shu paytgacha mavjud bo`lgan ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat manbalarini boyitishga xizmat qilishi e'tirof etildi. Bular, albatta, bizning dastlabki yutuqlarimiz va biz ularni muttasil ko`paytirib borish zarurligini doimo his qilib turibmiz.

2000 yilning fevral oyidan boshlab bioximiya, o`simliklar fiziologiyasi ixtisosliklari bo`yicha nomzodlik dissertatsiyalari tayyorlashga ruxsat qilindi. Yaqin orada boshqa fanlar bo`yicha ham aspiranturaga qabul qilinadi.

Hozirgi kunda K.Xudayberganov, N.O`rozboeva, X.Yusupov, A.Rahimov, I.Abdullaev kabi iqtidorli yoshlar nomzodlik dissertatsiyalari ustida ish olib borishyapti.

Akademiyada qadim qadriyatlarimizni ulug`lovchi, diyorimizda tavallud topgan buyuk siymolarimiz hayoti va faoliyatining yangi qirralarini ochib

beradigan, shu bilan birga ilm-fan, xalq xo'jaligi taraqqiyotiga dahldor, ekologiyani yaxshilashga oid qator anjumanlar ko'plab o'tkazilmoqda. Bu borada gap ketganda ilk akademiya asoschisi, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy kengashlar o'tkazish odat tusiga kirib qolganligi alohida aytib o'tish lozim deb bilaman. Joriy yilda shu munosabat bilan uchta tadbir o'tkazildi.

Respublika va xalqaro miqyosda yirik anjumanlar bo'lib o'tmoqda. "Ekosan"- Ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasi, Xorazm viloyati hokimligi, Ma'mun Akademiyasi va "Ekosan" Toshkent klubi bilan hamkorlikda "Xorazm vohasi ijtimoiy ekologik taraqqiyotidagi muammolar va uning istiqbollari", shuningdek nufuzli tashkilotlar va o'quv yurtlari bilan hamkorlikda Xorazmda ilk davlatchilikning vujudga kelishi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, buyuk vatandoshlarimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Ogahiy tavalludining 190 yilligini, "Avesto" asari yaratilganligining 2700 yilligi, "Jahon madaniyati xalqaro tinchlik uchun" mavzularidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni alohida ta'kidlab o'tishni istardim. Mamlakatimiz taraqqiyotiga, tinchlikni mustahkamlashga oid bunday anjumanlar o'tkazish bundan buyon ham diqqat markazimizda bo'ladi.

Akademiyaning "Nashriyot va matbaa birlashmasi" da olimlarimizning ilmiy izlanishlari, monografiyalar, ilmiy to'plamlar, aspirantlarning dissertatsiya ishlari, akademiyaning muhim hujjatlari endilikda o'zida chop etiladi. Shuningdek, o'n bosma taboqqacha bo'lgan mualliflar asarlarini ham chop qilinishi mumkin. Turli hisob-kitob varaqalari, taklifnomalar, bukletlar tayyorlanadi. Akademiya xodimlarining xalq xo'jaligini rivojlantirish, turmush farovonligini oshirish, ma'naviy kamolatga xizmat qiladigan ilmiy ishlari imtiyozli ravishda chop etib berilyapti.

Shu paytgacha 16 ta risola va ilmiy-ommabop ishlar chop etilib, bir yarim million so'mlik ish bajarildi.

Hozirgi davrdagi muammolar: zarur manbalar, adabiyotlar "Arxeologiya, tarix va falsafa", "Til va adabiyot" bo'limlari ish samaradorligini oshirish uchun

shu fanlarga oid kitoblar, qo`lyozma manbalarini Rossiya, Angliya, Turkiya, Misr, Eron, Pokiston, Ozarbayjon kabi mamlakatlardan keltirish masalasini hal qilish zarur. Internet tizimiga ulanib, sohalar bo`yicha yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashni davr taqozo etyapti. Tajriba ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash maqsadida texnika vositalari kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoiti davrida Xorazm viloyatida qishloq xo`jaligini keskin rivojlantirish, ekologik muhitni yaxshilash, aholi salomatligini tiklash va mustahkamlash o`ta hayotiy, kechiktirib bo`lmas vazifa ekanligini nazarda tutib, Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibida "Qishloq va suv xo`jaligi", "Ekologiya va tibbiyot" bo`limlarini tashkil etish nihoyatda zarur. (Xorazm Ma'mun Akademiyasi raisi muovini, biologiya fanlari doktori, professor K.S.Safarovning jurnalistlarga bergan intervyusidan olindi).

Shonli tariximizni, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni chuqur va atroflicha o`rganish bugungi mustaqil hayotimizning ma'no va mohiyatini, qadru - qimmatini anglab yetishga xizmat qiladi. O'tmish ibratlari halqimizni, ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tmishning ilg'or tajribalari mustaqil O'zbekistonning kelajak taraqqiyotini oqilona belgilashga yordam beradi. 1997 yilda Yunesko shafeligi ostida Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi tantanalari minbaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab shunday degan edi: "Bundan ming yil muqaddam odamzod tarixidagi ilk akademiyalardan bo'lmish Ma'mun akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topgani bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta. O'ylaymanki, biz Ma'mun akademiyasini Xorazm zaminida qayta tashkil etsak, ko'p ulug' ish bo'lar edi".

Ushbu taklif asosida 1997 yil 11 noyabr kuni Prezidentimizning «Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida» deb nomlangan Farmoni e'lon qilindi. Farmonning maqsadi va mohiyati quyidagicha ifodalangan: "O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli va fidoyi olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit

yaratishdagi milliy an'analarini rivojlantirish, qadimda fan, ma'rifat va madaniyat olamining markazi hisoblangan odamzod tarixidagi ilk Akademiyalardan bo'lmish Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish maqsadida:

1. Xorazm Ma'mun Akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining mintaqaviy bo'limi Xiva shahrida tashkil etilsin".

Ushbu Farmon asosida o'sha vaqtda qayta tiklanishi mo'ljallangan Ma'mun Akademiyasi zimmasiga bir qator muhim vazifalar ham yuklandi. Jumladan,

- Ilm-fan sohasidagi qadimgi ulug' milliy meros asoslarida yuqori intellektual muhitni yaratishdagi boy an'analarini tiklash va rivojlantirish, yosh iste'dodli olimlarni izlab topish, ularni Akademiya faoliyatiga jalb etish va ilmiy ijodlarining samaradorligini yuksaltirish;
 - Qadimgi milliy ilm-fan sohasidagi boy merosni har tomonlama o'rganish va tahlil qilish, tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya va biotexnologiya sohalarida fundamental izlanishlarni olib borish, zamonaviy ilmiy maktablar yaratish va fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish;
 - Mintaqada ilm-fan bilan bog'liq barcha ishlarni zamon talablari darajasida muvofiqlashtirish;
 - Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
 - Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni amalga oshirishda faol ishtirok etish, uzluksiz ta'lim tizimi va fan o'rtasidagi uzviy, o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, akademik liseylarda ilmiy pedagogik faoliyatni yuqori saviyada olib borish;
 - Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (T.Jo'rayev):
- Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibida tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya yo'nalishlari bo'yicha ilmiy bo'linmalarni tashkil etsin, ikki hafta muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasining tuzilmasi va ustavini tasdiqlasin;
 - Bir oy muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasining asosiy ilmiy yo'nalishlar hamda uning faoliyati bilan bog'liq sarf-harajatlarning hisobini tayyorlasin;

- 1998 yilning birinchi choragida o'z Ustaviga muvofiq ustivor ilmiy yo'nalishlar sohasida samarali ishlayotgan olimlardan Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibiga saylov o'tkazsin.

3. Xorazm Ma'mun Akademiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolari (akademiklar) ikki nafarga ko'paytirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (J.Sayfiddinov) Xorazm Ma'mun Akademiyasi ilmiy izlanishlar va ilmiy-tashkiliy faoliyatni olib borishi uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan sarf-harajatlar hisobiga muvofiq byudjetdan mablag' ajratsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi (P.Habibullayev) 1998 va keyingi yillarda Xorazm Ma'mun Akademiyasining ilmiy izlanishlar mavzularini Davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari tarkibida rejalashtirsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda Xorazm Ma'mun Akademiyasi va uning bo'linmalariga iste'dodli yosh olimlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni ta'minlasinlar.

7. Xorazm viloyat hokimligiga (I.Yusupov) bir oy muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasi uchun ma'muriy bino ajratish, uni ta'mirlash, transport, aloqa va boshqa zarur jihozlar hamda viloyatga taklif etilgan ilmiy xodimlarni uy-joy bilan ta'minlash yuklatilsin.

8. Ushbu Farmonning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklansin.

Ushbu Farmon ijrosi yuzasidan 1997 yil 11 noyabrdan boshlab bir oy ichida Xorazm Ma'mun Akademiyasi tashkil topdi. Akademiya tarkibida bir qancha ilmiy yo'nalishlar bo'yicha bo'limlar tashkil etildi. "Arxeologiya, tarix va falsafa", "Til va adabiyot", "Biologiya muammolari" kabi bo'limlar shular jumlasidandir. Akademiya faoliyatining dastlabki yillarida biologiya yo'nalishida mahalliy qishloq xo'jalik xom-ashyosi asosida vitaminli omuxta yem-xashak tayyorlash texnologiyasini yaratish va takomillashtirish ustida jiddiy ishlar qilindi. Bu

yo'nalishda Xorazm mintaqasidagi o'simliklar dunyosini o'rganish, tuproq va iqlimning noqulay sharoitlarida o'simliklarni moslashtirish hamda turlarini saqlash va ko'paytirish ustida olib borilgan ishlar alohida diqqatga sazovordir. Maxsus ilmiy loyiha asosida biolog olimlar amarant o'simligining bir necha turlarini Xorazm sharoitida o'stirish, hosildoligining yuqori darajasini ta'minlash, o'simlikning ko'k massasini qayta ishlash usullari ustida izchil tajriba sinov ishlarini olib bordilar. Shu bilan birga Ma'mun Akademiyasi biolog olimlari don o'simliklaridan makkajo'xorining uch xil navini, tariqning ikki xil navini Xorazm Ma'mun Akademiyasi tajriba bazasida ekib, ular ustida bioekologik maxsus tajribalar olib bordilar.

Mintaqadagi biologik resurslardan hamda o'zlashtirilgan yangi o'simlik va don mahsulotlaridan chorvachilik sohasida, ayniqsa yirik shoxli chorva hamda parrandalar mahsuldorligini oshirishga qaratilgan tajribalar vohadagi ekosistemaning noqulay sharoitida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammoni hal qilishda chorva ozuqasiga bo'lgan talabni noqulay iqlim va ekologik sharoitda zarur darajada tutmoq jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Masalani samarali hal qilishda oqsil moddalariga boy bo'lgan amarant o'simligi tabiiy sharoitga yuqori darajada mos ekanligini ko'rsatdi. Bu o'simlikni madaniy ekinlar qatoriga kiritish ozuqa ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishga, ozuqa tarkibidagi proteinni boshqa moddalar bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, tarkibida oqsil, aminokislotalar, vitaminlar, makro va mikro elementlarga boy bo'lgan amarant mintaqadagi asosiy an'anaviy ozuqabop o'simliklardan qolishmaydi. Masalan, amarantning yashil massasi gektariga bir o'rimda gektaridan qulay sharoitlarda 800-100 sentnergacha hosil beradi. Bu esa gektaridan 90-130 sentner sof ozuqa birligi va 2 tonnagacha protein olishga imkon beradi. Bir mavsumda uch o'rim hosil yig'ishtirish salkam 2000 sentnergacha yashil ozuqabop massa beradi.

Amarantning quritilgan massasida saqlash va noqulay mavsumlar uchun o't uni tayyorlash bo'yicha ishlab chiqarish texnologik sxemasi joriy qilish uchun tavsiya qilindi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida tuproqshunoslik masalalari bo'yicha mintaqaviy muammolar ustida ishlar olib borilmoqda. Xususan, Bog'ot va Xiva tumanlaridagi xo'jaliklarda olib borilgan tuproqshunoslik tadqiqotlari bir qator ilmiy va amaliy natijalar berdi.

Jumladan:

- Quyi Amudaryo etaklarida Xorazm vohasining tuproq qoplami, asosan daryo yotqiziqlaridan iboratligi, sug'orma dexqonchilik natijasida turli xil qalinlikda xosil bo'lgan agroirrigasion qatlam hisobiga bir-biridan farq qiluvchi turli xil mexanik tarkibli tuproqlar aniqlandi va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

- Sug'orma dexqonchilik natijasida hosil bo'lgan agroirrigasion qatlam kanal va vaqtinchalik ariqlarning oxirgi qismi ko'l qirg'oqlariga bir necha yillar davomida katta miqdorda oqar suvning kelib tushishi sababli hosil bo'lgan agroirrigasion qatlamdan nisbatan fizik loyning miqdori kam, chirindi qatlami qalin, suv o'tkazish qobiliyati, strukturaviy holati yaxshiligi aniqlandi;

- Dehqonchilik madaniyatiga bog'liq ravishda agroirrigasion qatlam xosil bo'lish jarayoni tezlanishi natijasida hosil bo'lgan tuproqlarning meliorativ holati, tabiiy sharoitda hosil bo'lgan agroirrigasion qatlamga nisbatan yaxshi bo'lishi kuzatildi;

- Viloyatdagi barcha tipdagi tuproqlarda ikkilamchi sho'rlanish jarayoni sodir bo'lmoqda. Bu jarayonning tez yoki sust kechishi yer osti suvlarining joylashish sathiga va ularning sho'rlanish darajasiga bog'liqligi aniqlandi;

- Mintaqada sug'oriladigan yerlarning tuproq qatlami va qumli qatlam suvlari sathi, mineralizasiyasi bir-biridan farq qiladi;

- Ikkilamchi sho'rlanish xisobiga hosil bo'ladigan tuzlarning yer yuzasidan chuqurligi tuproq qatlamidagi suv sathiga bog'liq bo'lib, undan 40-60 sm joylashishi aniqlandi.

Olingan ma'lumotlar asosida irrigasion tuproqlarning sho'rlanish qonuniyatlari aniqlanib, mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Xorazm mintaqasining tuproq va iqlim sharoiti taqazosi bilan qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlarini o'rganish muammosi Akademiyaning eng dolzarb yo'nalishlari qatorida turibdi. O'tkazilgan tajribalar, fenologik kuzatuvlar va laboratoriya tahlillari asosida Xorazm vohasining tuproq va iqlim sharoitlarida yaxshi o'sib, yuqori sifatli hosil beradigan o'simliklarini optimal tanlash seleksiyasini yanada yaxshilash, yangi ekin turlarini sharoitga moslashtirib ekishni joriy qilish kabi qator masalalar bir tomondan aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va chorvani oqsilga boy ozuqa bilan ta'minlash masalalariga bevosita bog'liqdir. Bu yo'nalishda tuproq unumdorligini biologik vositalar yordamida oshirishni ko'zda tutib, dukkakli don ekinlarini ko'paytirish ustida tajribalar muhim natijalar bermoqda. Bu sohada soya o'simligining bir necha navlari, ana'anaviy loviyaning mahalliy navini, no'xatning tashqaridan keltirilgan va mahalliy navlarini ekib tajriba qilish yaxshi natijalar bermoqda. Ularning vegetasiya jarayonlarini yuksak texnologiya bilan ta'minlash masalasi ham tajribalarning asosiy maqsadi bo'lmoqda.

Aholini servitamin va biologik faol moddalarga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida pomidorning Orko va Inkas navlarini, bolgar qalampirining, bodringning Feniks va boshqa navlarini, baqlajonning Yevropadan keltirilgan navlarini, sabzining chetdan kelgan va mahalliy Mirzoi navlarini keng plantasiyalar asosida ekib yuqori hosil undirish ilmiy dastur asosida yo'lga qo'yildi.

Poliz ekinlaridan tarvuzning Ledi, Red komet va Kristi navlari, qovoqning Ispan-77 navi tavsiya qilindi. Moyli o'simliklardan kunjutning Isroildan, araxisning AQSh va Koreyadan keltirilgan navlari keng maydonlarga ekishga tavsiya qilindi. Serqirra o'simlik-krotalyariya poyasi chorva uchun to'yimli ozuqa, uzoq muddat davomida gullagani bois asalarichilik uchun, siderat o'g'it sifatida esa dexqonchilikda katta ahamiyatga ega. Poliz ekinlaridan Xorazm qovun

navlarini zararkunandalardan asrash masalasi alohida diqqat markazida turibdi. Ayniqsa, qovun pashshasiga qarshi kurash vositalari haqida ish olib borilmoqda.

Xorazm xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikni rivojlantirishda istiqbolli g'o'za navlarini yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, g'o'zaning istiqbolli 4 navining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi o'rganildi.

Xorazm vohasida termit (chumoli)larga qarshi kurashish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan Ma'mun Akademiyasida termitlarning ekologiyasi va ko'payishi, biologik xususiyatlari, yashash tarzi kabi masalalarni o'rganish yalpi ma'noda xo'jalikni himoya qilish Xorazm florasini asrash, inshootlarni termitlar yemirishidan saqlash kabi muhim vazifalar shu munosabat bilan yuzaga kelmoqda.

Xorazm vohasining Xiva, Xazorasp, Yangiariq, Urganch, Shovot, Qo'shko'pir tumanlarida hamda Xiva va Xazorasp shaharlari tarixiy yodgorliklari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi «Ozod» jamoa xo'jaligi xududida, Ellikqala tumani Bo'ston shahri yaqinida joylashgan Qabatqal'a xarobalarida, uning atrofidagi uy-joy inshootlarida hamda Ayazqala qo'li, Aqcha qo'li atrofida termitlar joylashgan joylarda ham tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra, termitlarning Turkiston va Katta Kaspiy orti turlari turar-joy, ma'muriy va jamoat binolari hamda tarixiy yodgorliklarga katta zarar yetkaziyapti. Masalan, Xiva shahrining Mevaston mahallasidagi 221 xonadonning yarmi termitlardan jiddiy zarar ko'rgan. YuNESKO himoyasidagi Ichonqal'a tarixiy yodgorliklari kompleksidagi obidadan 35 tasi termitlardan turli darajada zararlanganligi aniqlandi. Termitlarning turar-joy binolarida, tarixiy obidalarda bu darajada zarar keltirishi, tarqalishi o'rganilganda, eski qabristonlarning buzilib, o'rniga joylarning qurilishi, termitlar tarqalgan qirlarni va qumlarni o'zlashtirib, turar joylarning bunyod qilinishi ushbu xududlarda termitlarning tarqalishiga sabab bo'lgan, ya'ni eski qabristonlar, tarixiy qal'alar, qumlik va qirlar termitlarning asosiy o'chog'i ekanligi aniqlandi.

Termitlar jamoa bo'lib yashaganda hashoratlar hisoblanadi. Oilada individlarning o'z vazifasi mavjud. Masalan, ishchilar uyani qurish va tozalash, oziq g'amlash, lichinka va shox hamda malikalarni oziqlantirish kabi vazifalarni, navkar esa uyani dushmandan ximoya qilish vazifasini, erkak va urg'ochisi ko'payish vazifasini bajaradi. Ularning yashash muddatlari ham turlicha bo'ladi.

Xorazm vohasi tuproqlarida termitlar yil fasllariga qarab tuproq haroratining o'zgarishiga bog'liq xolda xar xil chuqurlikda tarqalgan. Yozning jazirama issiq kunlari termitlar tuproqning 40-45 sm chuqurligigacha, kuz oylarida tuproqning ancha yuqori qatlamlariga ko'tariladi. Qish oylarida esa tuproqning 250-280 sm chuqurligigacha termitlar uchramasdan, ular tuproqning yanada chuqur qatlamlariga yoki xonadonlarga tarqalishi aniqlandi. Uy-joy binolari va inshootlarga zarar yetkazuvchi Turkiston termitiga qarshi kurash choralari bo'yicha uslubiy qo'llanma nashr qilindi.

2000-2002 yillar davomida Xorazm Ma'mun Akademiyasida «Xorazmning turli tuproq-iqlim sharoitlarida unumdorlikni oshirish hamda g'o'za, beda, g'alla majmuidagi ziroatlardan yuqori hosil olishni ta'minlovchi ziroatlarni almashlab ekish tizimlarini takomillashtirish va joriy qilish» mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan g'o'zaning 14 navi, bug'doyning 2 navi va mahalliy beda tajriba maydonlariga ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari, tuproq unumdorligini va yerning meliorativ xolatini yaxshilashdagi ta'sirini, shuningdek, g'o'zaning yangi istiqbolli navlarining hosildorligini oshirishdagi ahamiyati o'rganildi.

Ilmiy asoslangan dexqonchilik tizimining muhim shartlaridan biri almashlab ekishning muayyan tuproq-iqlim sharoitiga mos samarali tizimini yaratishdir. Buning uchun asosiy ekinlar g'o'za va bug'doyning hosildorligini oshirish evaziga beda ekiladigan maydonlar salmog'ini ko'paytirish talab qilinadi.

Shu boisdan, Xorazmning turli tuproq-iqlim sharoitlarida unumdorlikni oshirish hamda g'o'za-beda-g'alla majmuidagi ziroatlardan yuqori hosil olishni ta'minlovchi ekinlarni almashlab ekish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha 2000-2002 yillarda izlanishlar olib borildi va jiddiy amaliy natijalarga erishildi.

Masalan, 9 dalali almashlab ekish tizimi bo'yicha g'o'za-beda-g'alla ekish sxemalari ishlab chiqildi va xo'jaliklarga tavsiya qilindi; viloyat sharoitida serhosil va ertapishar Xorazm 127 paxta navini ekish sxemasi bo'yicha ham tajribalar o'tkazilib, olingan natijalar asosida mintaqaga mos maqbul ekish sxemalari aniqlanib, tavsiyalar berildi; tajriba dalalarida qishloq xo'jaligi ekinlari-g'o'za, g'alla va beda o'ziga xos agrotexnika asosida o'stirilib, eki shva agrotexnik tadbirlarni o'tkazish muddatlari, o'g'itlar miqdori, suv rejimining maqbul me'yorlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi; tajriba dalalariga g'o'zaning 14 navi ekilib, mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga mos o'rta tolali g'o'za navlarini ekish va agrotexnikasi bo'yicha tavsiya berildi; Xorazm 127 o'rta tolali g'o'za navini qo'sh qatorlab ekish va undagi maqbul ko'chat qalinligi bo'yicha xo'jaliklarga tavsiyalar berildi. Tajribalarda xomiladorlik 5,8-7,4 sentnerga oshganligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida tayyorlangan tavsiyalarni ishlab chiqishga joriy qilish natijasida samaradorlikni va hosildorlikni oshirish, Xorazm viloyati tuproqlarning unumdorligini oshirish, yangi istiqbolli g'o'za va g'alla ekinlari navlarini tanlab olish imkoniyati yaratmoqda.

Mazkur yillarda yana bir mavzu: «Xorazm vohasi tuproq-iqlim sharoitlari istiqbolli, serhosil, zararkunanda va kasalliklarga chidamli ko'niktirilgan o'simliklar navlarini o'rganish» muammolari bo'yicha mintaqada tashqaridan keltirilgan 29 turga oid dukkakli don ekinlari, poliz, sabzavot va texnik ekinlarning 136 xil navi Akademiya tajriba dalalarida ekilib, ularning vegetasiyasi ustida ishlar olib borildi va hosildorlik darajasi o'rganildi. Shular qatorida Xorazm vohasida tuproq iqlim sharoitining noqulayligini e'tiborga olib, kungaboqarning 5 navi, moshning 2 navi, makkajo'xorining 2 navi, soyaning 2 navi, g'o'zaning 4 navi kabilarni xo'jalik samaradorligi talablari asosida takomillashtirish tajribalaridan o'tkazildi. Afrika qo'noq o'tini Xorazmga moslashtirish bo'yicha qilingan ishlar yaxshi natijalar berdi va bu o'simlik turi mintaqada chorva ozuqasi uchun tavsiya etildi. Aholini vitaminli va biologik faol moddalarga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun kunjutning 2 navi, bodringning 2 navi, qovoqning 2 navi, sholg'omning 2

navi, qulupnayning 4 navi, sabzining 2 navini keng maydonlarda ekish uchun tavsiya qilindi.

Sanoat ekinlaridan tola beruvchi kanopning 2 navi ham mintaqada sinovdan yaxshi o'tdi. Tadqiqotlar natijasida mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, ertapishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli istiqbolli o'simliklar navlarining bioekologik xususiyatlari va hosildorligini hamda boshqa foydali xo'jalik belgilariga ko'ra 1 turga mansub o'simliklarning 38 navi tanlab olindi.

Chorva mollarini don, ko'k massa va silos bilan ta'minlovchi asosiy ekin - makkajo'xoring yangi serhosil navlari va gibridlarini tanlash, Xorazm viloyati tumanlarida gibridizasiya uchastkalarini tashkil qilish, urug'chilik tizimini barpo qilish, «Xorazm sharoitida chorvachilikni mo'tadil ozuqaviy bazasini yaratish va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida sug'oriladigan yerlarda makkajo'xori va boshqa ozuqaviy ekinlarini ekib samarali foydalanish» mavzusida olib borilgan tadqiqot ishlarining asosiy maqsadidir.

Makkajo'xoring O'zbekiston-100 navi viloyat sharoitida o'rtacha 30/s ga don va 460s/ga ko'k poya berdi, Dias (Gresiya) navi o'rtacha 53s/ga don va 300s/ga ko'k poya, O'zbekiston pakanasi navi esa 45s/ga don va 250s/ga ko'k poya, 601-duragayi 52s/ga don va 300s/ga ko'k poya xosili berishi aniqlandi. Makkajo'xoring yangi navlari va duragaylarini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirishning viloyat sharoitlariga mos agrotexnikasi yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilindi va viloyatda makkajo'xori urug'chiligi tizimiga asos solindi.

Ozuqaviy oraliq ekinlar-tritikale gektaridan 40 sentner don va 175 sentner poya xosili, javdar esa 47 sentner don va 225 sentner ko'k poya hosil berdi. Kuzgi raps, surepisa va perko viloyat sharoitida cheklangan maydonlarda ekilib urug'lari yetishtirildi va bioekologik xususiyatlari o'rganildi.

«Quyí Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv-tuz rejimini yaxshilaydigan tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy loyixa mintaqada chigitning unib chiqish fazasida sizot suvlarini maqbul satxlarda ushlab turish va uni boshqarish texnologiyasini yaratish, sug'orma

suvlarini tejash, tuproqlarning suv-tuz rejimini tartibga solish, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash evaziga unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Mintaqada zaxkash-zovurlar majmuining rejimini yaxshilash va uni boshqarish evaziga tuproqlarning suv-tuz rejimlarini tartibga solish maqsadida Xiva tumani «O'zbekiston» va «Feruz» nomli shirkat xo'jaliklaridagi sizot suvining mavsumlar bo'yicha o'zgarishi va uning tarkibi o'rganildi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida viloyatda chigitning unib chiqish fazasida, ya'ni birinchi sug'orish muddatigacha maqbul tuproq namligini yaratishda zaxkash-zovur majmuini boshqarish texnologiyasini ishlab chiqildi. Tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash evaziga tuproqlar unumdorligini oshirish natijasida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini 15%gacha ko'tarishga erishildi. Suv tanqisligi davrlarida zaxkash-zovur suvlarini oqava daryo suvlari bilan birga aralashtirilib ishlatish hisobiga tabiiy usullarni 20%gacha (yillik me'yorning) tejash imkoniyati yaratildi.

Suv tanqisligi sharoitida yerlarning sho'rini yuvish, chigit urug'ini optimal muddatlarda undirib olish, ekinlarni mavsumiy sug'orishlarda zaxkash suvlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Xorazm viloyatida 2001 yilda olingan yillik iqtisodiy samara 1 milliard 775,9 million so'mni tashkil qiladi.

2003-2006 yillarda yuqorida keltirilgan ilmiy yo'nalishlar yanada takomillashtirilib mintaqada yangi istiqbolli qishloq xo'jaligi o'simliklarining turli xillari ekilib, ularning o'sishi va hosildorligi masalalarini o'rganish davom etdi. O'simliklarning bioekologik xususiyatlari, ayrim fiziologik jarayonlarning ko'rsatkichlari meva va urug'larining biokimyoviy tarkibi va foydali koeffisiyentlari tadqiq etildi. Shuningdek, sug'oriladigan maydonlardan unumli foydalanish maqsadida kuzgi boshoqli don ekinlaridan bo'shagan yerlariga takroriy ekinlar ekib, bir yilda ekin maydonidan ikki marta hosil olish, o'rganilgan dukkakli ekinlarning tuproq unumdorligini oshirish imkoniyatlari ham tadqiq qilindi.

Hozirgi kunda Xorazm Ma'mun Akademiyasi eksperimental bazasi dalalariga turli mintaqalardan keltirilgan bamiyaning 14 turi, amarantning 3 turi,

daykonning 2 navi, krotalyariya, nug, topinambur, kungaboqarning 5 navi, raps va surepisaning 2 turi, makkajo'xorining 3 navi va 2 gibbridi, g'o'zaning istiqboli 10 navi, sholining 3 navi, xashaki nugning 2 navi, qashqar beda va boshqa o'simliklar ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari kasallik va zararkunandalarga hamda noqulay omillarga chidamliligi o'rganildi va yetishtirishning agrotexnologiyalari takomillishtirildi.

Olingan natijalar asosida tayyorlangan tavsiyalarni qishloq xo'jaligiga va xalq xo'jaligining boshqa soxalariga joriy qilish oqibatida o'simliklar mahsulotlarining hajmini oshirish va sifatini yaxshilash, tuproqlarning unumdorligini oshirish, istiqboli yangi o'simliklarni ko'niktirish, mintaqaning ekologik holatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

«Xorazm sharoitida chorvachilikning mo'tadil ozuqaviy bazasini yaratish va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida sug'oriladigan yerlarda makkajo'xori va boshqa ozuqaviy ekinlar ekib samarali foydalanish» mavzusi bo'yicha mazkur yillarda ushbu ekinlarning mintaqaviy agrotexnikasi - yerni tayyorlash, ekish muddatlari va me'yorlarini aniqlash, suv sarfi, mineral va mahalliy o'g'itlarning turli miqdorini belgilash bo'yi tadqiqotlar olib borildi. Natijada, hozirgi kunda makkajo'xorining uch navi va ikki gibbridi, oq jo'xori, mahalliy jo'hori, qashqarbeda, Kolumb o'ti, Afrika qo'nog'i, raps va surepisaning ikki turlari, sudan o'ti, amarant, tritikale ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari hamda ozuqaviy ekinlar yetishtirishning mintaqaviy xususiyatlari o'rganildi. Natijada quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Asosiy ekinlarning vegetasiyasini sentyabr oyida tugatish, oyning ikkinchi yarmida kuzgi ekinlar ekilib bo'lishi kerak.

- Yerni ekishga sifatli tayyorlash, o'z muddatida ekish hamda organik va meneral o'g'itlarni qo'llash-ozuqaviy ekinlardan yuqori hosil olishning garovidir.

- Ekinlarni o'z muddatlarida sifatli parvarishlash-meneral o'g'itlar berish, yerni yumshatish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash zarur. Asosiy ekinlar uchun organik o'g'itlarni, takroriy ekinlar uchun oson o'zlashtiriladigan meneral o'g'itlarni qo'llashning samarasi yuqori bo'ladi.

- Yuqori va sifatli hosil olish uchun ekiladigan o'simliklarning biologik xususiyatlari va viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari to'g'ri xisobga olinishi shartdir.

- Sinalgan ozuqaviy ekinlarni yetishtirish texnologiyasining mintaqaviy xususiyatlari aniqlandi. Sug'orma yerlardan samarali foydalanish, kech kuz va erta bahorda chorva mollarini ko'k ozuqa bilan ta'minlash, tuproq unumdorligini oshirishga imkon beradigan ozuqaviy ekinlarni almashlab ekishning tizimi tajribalarida sinab ko'rildi.

- Ekin maydonlarida bir yil ikki marta hosil yetishtirilganda bahorgi ekilganiga nisbatan 30-40 foizdan ortiq yashil massa, don va ozuqa birligi olinadi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida mintaqaviy ekologik sharoitni hisobga olgan holda, aholi salomatligini saqlash va medisina xizmati oldida turgan muhim vazifalarni belgilash bo'yicha "Xorazm vohasining ekologik holati va uning aholi salomatligiga ta'siri" mavzusida ilmiy dastur ishlab chiqilgan va tadqiqot ishlari davom etmoqda. Ushbu tadqiqot yo'nalishi mintaqaning Xiva, Shovot, Xazorasp tumanlari bo'yicha dala kuzatuvlari va joriy nazorat asosida ilmiy va amaliy masalalar o'rganilmoqda. Buning uchun joylardagi tibbiyot statistikasi muassasalarning tibbiyot axborotlari istiqbol rejalarini belgilash byurolarining statistik materiallari, viloyat sanitariya-epidemiologiya stansiyasi va uning tumanlardagi bo'limlari, viloyat tabiatini muhofaza qilish qo'mitasi, «Ekosan» halqaro jamg'armasi va uning viloyat bo'limi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi va ularning tumanlardagi bo'limlari, viloyat «Qishloq xo'jalik kimyo» hududiy birlashmasi, viloyat yer resurslari boshqarma va boshqalar kompleks o'rganilmoqda.

Orol dengizining qurishi oqibatida Janubiy Orol mintaqasi, xususan, Xorazm viloyatida yuzaga kelgan ekologik holat ko'lami chuqur tahlil qilindi.

Viloyatdagi xududiy ekologik muammo omillari va ularga bog'liq tarzda hudud aholisi o'rtasida yuzaga kelayotgan turli kasallik o'rtasida o'zaro korrelyasion bog'liklik darajalari o'rganildi.

Xorazm voxasining ekologik holati va uning aholi salomatligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar respublikamizning boshqa xududlari, xususan Farg'ona va Toshkent viloyatlaridagi ko'rsatkichlarga qiyosiy tahlil qilinmoqda.

Ma'mun Akademiyasida aniq fanlar doirasida ham jiddiy tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, akademik A.S.Sa'dullayev rahbarligida "Potensiallar nazariyasi va nochiziqli tenglamalar" mavzusida nazariy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi matematik chegaraviy to'plamlarning potensiallar xossalarini to'liq o'rganish va fizik masalalarni yechishda uchraydigan nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

Ilmiy loyiha bo'yicha matematik chegaraviy to'plamlarning kompleks potensiallari, Bogolyubov teoremlari, tez kamayuvchi, zinasimon, davriy va deyarli davriy potensialli operatorlar uchun teskari masalalar o'rganildi. Olingan ilmiy natijalar matematik fizikaning bir qator nochiziqli evolyusion tenglamalarini yechishda qo'llanilmokda. Chegaraviy to'plamlarning potensiallar xossalarini to'liq o'rgangandan so'ng, bu potensiallar yordamida chegara bo'lagini aniqlangan funksiyalarni soha ichiga davom ettirish haqidagi muammoni hamda ko'pchilik fizik masalalarni yechishda uchraydigan manbaga ega bo'lgan nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechish imkoniyatlarini yaratadi.

Ushbu tadqiqotlar kng ma'noda halqaro ilmiy dasturlar doirasida olib borilmoqda. Moskva, Volgograd, Kiyev, Xarkov, Novosibirsk Davlat universitetlari va Chexoslovakiya, Shvesiyaning matematika sohasidagi ilmiy markazlari bilan yaqindan ilmiy-amaliy aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Xorazm mintaqasida ekologik sharoitning murakkablashuvi Orol dengizining qurib borayotgani, tabiiy suv rejimiga antropogen ta'sirining kuchayishi natijasida Amudaryo suvining kamayishi yer osti Sizot suvlarining ko'tarilishi, tuproqning sho'rlanish darajasi ortishi va boshqa bir qator omillar tarixiy me'moriy obidalarining saqlanish ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni e'tiborga olib, Ma'mun Akademiyasida "Xorazm me'moriy obidalarining fizik va

biologik ta'sirlardan ximoya kilishning ilmiy asoslangan uslublarini ishlab chiqish» mavzusi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu mavzuning muhimligi shundaki, jahon ahamiyatiga ega bo'lgan qo'riqxonada deb tan olingan Xiva shahrining obidalarini kelajak avlodlarga yetkazib berish bugungi avlodning ham qarzi, ham farzidir.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Xorazm mintaqasida sivilizasion jarayonlar va davlatchilik tarixi masalalari bo'yicha davlat granti asosida ish olib borilmoqda. Bu mavzuga O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning yirik arxeolog va tarixchilari jalb etilgan. Jumladan M.Is'hoqov, V.Yagoden, S.Qudratov, A.Abdurasulov kabi olimlar bu mavzu bo'yicha samarali natijalarga erishmoqdalar. Ayni shu muammo doirasida Avestoshunoslik yo'nalishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. M.Is'hoqovning qadimiy o'zbek davlatchiligining ilk konseptual asoslari haqida Avesta materiallari asosida chiqargan xulosalari katta nazariy ahamiyatga ega. V.Yagodenning chap qirg'oq Amudaryo mintaqasida sivilizasion jarayonlar va davlatchilik masalalariga bag'ishlangan arxeologik tarixiy tadqiqotlari fundamental ilmiy xulosalarga asos bo'lmoqda.

Xorazm mmintaqasi aholisining etno-madaniy tarixiy masalalari ham jiddiy tadqiqot yo'nalishini tashkil qilgan. Xususan, voha aholisining urf-odat, udum irim-sirimlarining genetik asoslari va hozirgi holati bo'yicha kuzatuvlar muhim sosial antropologik xulosalar qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Xorazm qadim zamonlardan boshlab o'ziga xos tarixnavislik an'analariga egadir. Shu ma'noda Xorazm tarixnavisligining taraqqiyot dinamikasini o'rganish, mintaqada ayniqsa, turkiy tilli tarixnavislik maktabining vujudga kelishi va uning ilmiy merosini o'rganish alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Xorazm Ma'mun Akademiyasi tadqiqot yo'nalishlaridan biri filologik muammolar bilan bog'liq. Bu sohada Xorazmdagi til vaziyati masalasi shevashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida hali ko'p ishlar qilinishi lozim. Ma'naviyat takomili bilan bog'liq bo'lgan falsafiy, falsafiy-ahloqiy yozma merosni o'rganish, tarixiy

manbashunoslik sohalarida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish muhim vazifalar qatorida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Асарлар. 1-13 жилдлар. Ўзбекистон нашриёти.
2. Каримов И. Илму маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди. Хоразм Маъмун Академиясининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. Халқ сўзи. 2006 йил 3 ноябрь.
3. Авесто. Асқар Маҳкам. -Т.: Шарқ, 2001.
4. Авесто. Яшт китоби. Мирсодиқ Исҳоқов таржимаси. -Т.: Шарқ, 2001.
5. Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Средней Азии и Хорасане Х-начала XI в. – Т.: Фан, 1984.
6. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I жилд. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. -Т.: Фан, 1963.
7. Абу Али Ибн Сина. Канон врачебной науки. – Т.: Издательство медицинской литературы им. Абу Али ибн Сины, 1996.
8. Абу Мансур ас-Саолибий. Ажойиб маълумотлар. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995.
9. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. IV жилд. Фармакогнозия. - Т.:Фан, 1974.
10. Абу Рейхан Беруни. Минералогия. -М.: Наука, ГРВЛ, 1958.
- 11.Бабашев Ф. Хоразм Маъмун академияси - маърифат ўчоғи. -Т.: Иқтисод-молия, 2005.
12. Гудкова. Ток-кала. - М.: Наука,1966.
13. Жуманиязов М. Маъмун академияси. Урганч-1994.
14. Ибн Мискавайх. Жовидони хурд (Боқий тафаккур. Ўз ФА ШИ кўлёзмалар фонди. Инв. № 2213/11.).
15. Топрак-кала. Дворец. - М.: Наука, 1984.
16. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М.: Наука, 1948.
17. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. - М.: Наука, 1948.
18. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. - М.: Наука, 1959.
19. «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.

20. Хоразм Маъмун академияси (Хорезмская академия Маъмуна). Китоб-альбом. Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган. –Т.: Шарқ, 2005.
21. Хоразм Маъмун академияси. Илмий монографик тўплам. – Тошкент, 2005.
22. Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.
23. Қарақалпақстан тарийхи. 1-3 китап. Нокис, 2002-2004.
24. Ғуломов. Я.Ғ. Қадимги Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан, 1957.
25. Матниёзов М., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. Хоразм - 1999.
26. Хасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т.: Адолат, 2001.
27. “Таълим муаммолари” журнали. № 1. 2006.
28. “Фан ва турмуш” журнали. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).

